

O'QUVCHILARDA MAKTAB PSIXOLOGI TOMONIDAN MUSTAQIL KASB-HUNAR TANLASHNI SHAKLLANTIRISH

Qodirov Nilufar Abdusattor qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti
E-mail: nqodirova27@mail.ru

Annotatsiya: “Kasb tanlash”, “Mustaqil fikrlash”, “Ongli ravishda mustaqil kasb-hunar tanlashga tayyorlash” tushunchalarini pedagogik-psixologik tavsiflarini boyitish va o’quvchilarni ongli ravishda mustaqil kasb-hunar tanlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon modelini takomillashtirish. Ilg’or xorijiy va tarixiy tajribalar asosida o’quvchilarda kasb-hunar tanlashga oid mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayonining mazmuni, shakllari, vositalari, usul va metodlarini tanlash.

Kalit so’zlar: Tafakkur, mustaqil fikrlash, ta’lim-tarbiya, tashkilotchilik qobiliyati, bilim, ko’nikma malaka, shaxs, qiziqish, mayl, kasb.

ФОРМИРОВАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ВЫБОРА ПРОФЕССИИ У УЧАЩИХСЯ ШКОЛЬНЫМ ПСИХОЛОГОМ

Кадирова Нилуфар Абдусаттор қизи
докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: Обогащать педагогико-психологическую характеристику понятий «Выбор профессии», «Самостоятельное мышление», «Подготовка к осознанному самостоятельному выбору профессии» и усовершенствовать модель педагогического процесса, направленного на осознанный выбор профессии учащимися. Выбрать содержание, формы, средства, методы и приемы формирования самостоятельного мышления учащихся в отношении выбора профессии с учетом передового зарубежного и исторического опыта.

Ключевые слова: Мышление, самостоятельное мышление, образование, организаторские способности, знания, умения, личность, интерес, склонность, профессия.

FORMATION OF INDEPENDENT CAREER CHOICE IN STUDENTS BY A SCHOOL PSYCHOLOGIST

Kadirova Nilufar Abdusattor qizi
PhD student at Namangan State University

Annotation: *Enrich the pedagogical and psychological characteristics of the concepts of "Choice of profession", "Independent thinking", "Preparation for conscious independent choice of profession" and improve the model of the pedagogical process aimed at consciously choosing a profession by students. Select the content, forms, means, methods and techniques of the process of forming independent thinking in students regarding the choice of profession based on advanced foreign and historical experience.*

Key words: *Thinking, independent thinking, education, organizational skills, knowledge, skills, personality, interest, inclination, profession.*

Kirish

Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchi shaxsini shakllantirish va uning kasb-hunar tanlashida muhim davr hisoblanadi. Shu ma'noda aytish joizki, "Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi"

Kasbni to'g'ri tanlash inson hayotida muhim qadam bo'lib, yosh avlodning butun umridagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

"Kim bo'lsam ekan?" degan savol har bir o'quvchi uchun asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayoni va uning natijalaridan qoniqish ijodkorlikni ko'p jihatdan namoyon etish, yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini birmuncha to'la amalga oshirish imkonini beradi. Olib borilgan izlanish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchining kasb tanlash jarayoniga bir qator tashqi omillar kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Ushbu holatlar o'quvchida kasbiy tafakkurning shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega", deb belgilab qo'yildi

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari sifatida umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litsey(AL)da yoki kasb-hunar kolleji(KHK)da o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu qonun bilan bir vaqtda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal

etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilindi. Bugungi kunda maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi" asosiy organ hisoblanadi. Markaz O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish xizmatiga rahbarlik qiluvchi organ hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida ularning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi.

Barcha bosqichdagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta'lim muassasalaridagi kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining hayotiy va kasbiy o'zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu borada bajarilayotgan ishlar asosan psixologik yo'nalishda bo'lib, o'quvchining kasb-korga nisbatan layoqati, qiziqishlarini baholashdan iborat bo'lib qolmoqda. Bizning nazarimizda, o'quvchida kasbiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari va shart-sharoitlarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga tatbiq qilish va shundan keyingina uni baholash bugungi kundagi muhim zaruriyatdir.

Sezgi va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Inson fikr qilish faoliyati jarayonida o'z idroki, tasavvuri va fikrlarining to'g'riligi, aniqligi va haqiqiyiligini, ularning voqelikka muvofiqligi yoki muvofiq emasligini belgilab oladi.

Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to'laroq aks etadi. Inson sezgi, idrok va tasavvur vositasi bilan bilib olishi mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib oladi.

Tafakkur qilish voqea va hodisalarni oldindan ko'rish imkonini beradi va bu jarayon o'z oldimizga maqsadlar qo'yishimizga va shu maqsadlarga muvofiq harakat qilishimizga imkon beradi. Oldindan ko'rish va atrof-olamdagi buyumlarning xossalari bilish tufayli insoniyatning hozirgi tajribasi vujudga kelgan, bu esa xilma-xil mehnat bilan shug'ullanish imkoniyatini ochib bermoqda.

Tushuncha narsalar to'g'risida – ularning xususiyatlari, holatlari, bog'lanishlari va munosabatlari to'g'risida bir-biri bilan bog'langan hukmlardan hosil bo'ladi. Biron narsa to'g'risida tushuncha hosil qilish — shu narsa to'g'risida bir qancha hukmlar yuritish demakdir. Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy va muhim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir.

Tasavvur – arabcha soʻzdan olingan boʻlib, oʻylash, xayol qilish, koʻz oldiga keltirish kabi maʼnolarni anglatadi.

1. Narsa, hodisa va shu kabilar haqida kishi ongi-xayolidagi maʼlumot, bilim, tushuncha
2. Shunday maʼlumot, tushuncha, bilim shakllanishining manbai sifatidagi ong, xayol.

Tasavvur qilmoq (yoki etmoq):

- 1) xayolda tiklamoq, gavdalanitirmoq
- 2) idrok qilmoq
- 3) fls.psx. idrok qilingan, his etilgan narsa yoki xodisaning kishi ongida aks etishi, gavdalanishi.

Taʼlim jarayoni natijasida asta-sekin esa tafakkur konkret tafakkurdan mantiqiy - abstrakt tafakkur darajasiga koʻtariladi. Bunga barcha fanlar, ayniqsa, ona tili, matematika, odobnoma, milliy gʻoya: asosiy tushuncha va tamoyillar, fizika, tarix kabi fanlar kuchli taʼsir koʻrsatadi. Yuqori sinflarga kelib, oʻquvchilar shu fanlarga doir asosiy tushunchalarni oʻrganib oladilar va oʻzlarining fikrlash faoliyatlarida shu tushunchalarga tayanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 10-11-sinflari oʻquvchilarini kasb- hunarga tayyorlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagi 425-sonli [Qarori](#). Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)
2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari toʻplami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qoʻllanma.T.2003 yil.
3. Minlishev R.Z. Formatuon of professional competence of students of technical universities through interdisciplinary integration. University Press Journals. November 21, 2019.422-424.
4. Abdullayeva R.M. REQUIREMENTS FOR CHOOSING A PROFESSION.
5. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)
6. DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.269 ISSN:1308-5581 Vol 14,Issue 06 2022. 2150-2153.